

TALABALARDA KREATIVLIK SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH VA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY-INNOVATSION TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20654285>

Dusboyev Asliddin Turg'unovich

Quruqlikdagi qo'shinlar instituti

Harbiy pedagogika va psixologiya kafedrası boshlig'i o'rinbosari, dotsent

Annotatsiya

Jahonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni izchil joriy etish, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini yuqori kasbiy kompetensiyaga ega, ijodkor va tashabbuskor kadrlar tayyorlash orqali ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqola talabalarda kreativlik salohiyatini rivojlantirish va bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-innovatsion tayyorgarligini shakllantirish masalalariga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar

ta'lim tizimi, modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalar, kasbiy kompetensiya, ijodkor va tashabbuskor kadrlar, kreativlik, kasbiy-innovatsion tayyorgarlik.

Mamlakatimiz ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmun-mohiyatida zamonaviy bilim, kasbiy kompetensiya, mustaqil fikrlash ko'nikmalari hamda qat'iy hayotiy pozitsiyaga ega bo'lgan, kreativ salohiyati rivojlangan barkamol shaxsni tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri - talabalarda ijodkorlik, tashabbuskorlik, tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va muammoli vaziyatlarga yangicha yondashish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "Jamiyatimizda oliy ma'lumotga ega, yuksak malakali mutaxassislar qancha ko'p bo'lsa, rivojlanish shuncha tez va samarali bo'ladi", - deya ta'kidlanganligi oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh, ijodiy fikrlaydigan, kasbiy jihatdan yetuk mutaxassislarni tayyorlash zaruratini yanada oshiradi [1].

Jumladan, Prezidentimizning 2020-yil 29-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida yoshlar masalasiga alohida e'tibor qaratilib: "O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga nafaqat jadal islohotlar, balki ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erishamiz. Buning

uchun, avvalambor, tashabbuskor, islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur", - degan fikr ilgari surilgan [2]. Mazkur yondashuv oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yosh avlodni intellektual salohiyatli, kreativ fikrlaydigan, innovatsion faoliyatga tayyor shaxs sifatida shakllantirish hozirgi zamon pedagogikasining muhim vazifalaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Ayniqsa, uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi pedagog kadrlarni kreativ yondashuvlar asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash, ta'lim-tarbiya jarayonini yangi sifat bosqichiga olib chiqish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bois bo'lajak mutaxassislarda kreativ fikrlash, izlanuvchanlik, tashabbuskorlik, mustaqil qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarga yangicha yondashish kabi sifatlarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini yangilash, pedagog kadrlarni tayyorlashning innovatsion mexanizmlarini joriy etish, oliy ta'lim sifatini xalqaro talablar darajasiga ko'tarish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda tashkil etish, ularning intellektual, ma'naviy, ijodiy va kasbiy salohiyatini rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. "Yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda, ilmiy-texnologik talablarni hisobga olib isloh qilish, takomillashtirish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy va ma'naviy asosda shakllantirishni taqozo etmoqda.

Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarish va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarish darkor" [3]. Mazkur fikrlar ta'lim jarayonida talabalarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish, ularning kreativ salohiyatini yuzaga chiqarish hamda pedagogik jarayonda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarni kuchaytirish zaruratini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2021-yil 1-apreldagi PF-6198-son "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va

tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 1-apreldagi PQ-5047-son "Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi hamda mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kreativligini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik imkoniyatlarni ilmiy asosda takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Talabalarda kreativlik salohiyatini rivojlantirish, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-innovatsion tayyorgarligini shakllantirish, pedagogik kreativlikning mazmuni, tuzilmasi, rivojlanish omillari hamda ta'lim jarayonida ijodiy va tanqidiy tafakkurni shakllantirish masalalari respublikamiz pedagog olimlaridan O.Jamoliddinova, O.Musurmonova, M.Urazova, N.Egamberdiyeva, E.Yuzlikayeva, Sh.Sharipov, Sh.Shodmonova va boshqalarning ilmiy izlanishlarida yoritilgan [4]. Mazkur tadqiqotlarda kreativlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, didaktik ta'minoti, shaxs faolligini oshirish imkoniyatlari hamda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirishdagi o'rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya vositalari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhiti, talabalarning o'z-o'zini ijodiy faollashtirishi hamda kreativ mahsulot yaratishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni tashkil etish masalalari A.Abduqodirov, N.Azizxodjayeva, U.Begimqulov, J.Yo'ldoshev, Y.Kruglova, I.Ridanova, V.Slastenin, N.Sayidahmedov, O'.Tolipov, G.Chijakova, B.Xodjayev, M.Sherov kabi olimlarning tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan.

Shuningdek, xorijiy nazariyotchi va amaliyotchi olimlardan S.Hantington, K.Vuono, J.Stivenson, R.Rivkin hamda Rossiya Federatsiyasi tadqiqotchilaridan A.Bikov, A.Volkovitskiy, V.Gerasimov, A.Dobrovolskiy, S.Koninin, I.Mixalev, S.Chekinov, S.Bogdanov, A.Lipatkin va boshqalarning ilmiy ishlarida talabalarni zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorlash, ta'lim jarayonida innovatsion va kreativ yondashuvlarni qo'llash masalalari o'rganilgan [5].

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarda kreativlikni rivojlantirish masalasi turli jihatlarida tadqiq etilgan bo'lsa-da, oliy ta'lim tashkilotlari sharoitida kreativlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash, ularni tizimlashtirish, samarali metodik model asosida takomillashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish masalalari hali ham qo'shimcha ilmiy tadqiqotni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2. Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 29-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent: "O'zbekiston", 2021. – B.290-291.
4. Begmatov A., Aliyeva K., Abdushukurov B. Rahbar va yangicha tafakkur. - T.: «Akademiya», 2008. -65 b.
5. Ганиева М.Х. Исследование ценностных ориентаций и жизненных приоритетов молодежи узбекистана. – Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2016, 1 сон.